

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 24-iyulda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2021-yil 30-sentabrda ma'qullangan

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi 746-XII-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan 257-II-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, № 9-10, 168-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 6, 249-modda; 2008-yil, № 9, 487-modda, № 12, 636-modda; 2011-yil, № 4, 101-modda; 2012-yil, № 9/2, 244-modda; 2015-yil, № 8, 310-modda; 2016-yil, № 9, 276-modda; 2017-yil, № 3, 47-modda, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 4, 218-modda, № 7, 431-modda; 2019-yil, № 1, 1, 5-moddalar, № 5, 267-modda, № 11, 791-modda; 2020-yil № 1, 4-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) 8-moddasining **uchinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi:

Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining;

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yagona muvofiqlashtiruvchi organidir".

**2-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan 409-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 6, 175-modda; 2003-yil, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 6, 248-modda, № 9, 422-modda, № 12, 595-modda; 2008-yil, № 4, 187-modda, № 12, 636, 641-moddalar; 2009-yil, № 4, 136-modda, № 12, 470-modda; 2010-yil, № 9, 334-modda; 2012-yil, № 9/1, 238-modda; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 8, 310-modda; 2017-yil, № 3, 47-modda, № 10, 605-modda; 2019-yil, № 3, 165-modda, № 5, 267-modda, № 8, 469-modda, № 9, 588, 592-moddalar, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 6, 337-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) **18-moddasiga** quyidagi qo'shimcha va o'zgartish kiritilsin:

quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlari o'z vakolatlari doirasida korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish hamda tahlil qilish maqsadida jazoni ijro etish muassasalariga moneliksiz kirishga, zarur hujjatlar bilan tanishishga haqli";

**uchinchi** va **to'rtinchi** qismlari tegishinchaligiga to'rtinchi va beshinchi qismlar deb hisoblansin.

**3-modda.** O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi 522-II-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, № 9-10, 136-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 4, 163-modda, № 7, 326-modda; 2008-yil, № 12, 637-modda; 2009-yil, № 4, 136-modda; 2011-yil, № 4, 101-modda; 2013-yil, № 4, 95-modda; 2014-yil, № 4, 86-modda, № 5, 130-modda; 2015-yil, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 9, 276-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 224-modda, № 7, 431-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda, № 3, 157-modda, № 5, 261, 265-moddalar, № 8, 468-modda, № 9, 588-modda, № 12, 884-modda; 2020-yil, № 8, 488-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi mazmundagi 26<sup>2</sup>-modda bilan to'ldirilsin:

## **“26<sup>2</sup>-modda. O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risidagi milliy ma’ruzani ko’rib chiqish**

O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi har yili O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida milliy ma’ruza (bundan buyon matnda Milliy ma’ruza deb yuritiladi) tayyorlaydi, Milliy ma’ruza O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori tomonidan Qonunchilik palatasiga taqdim etiladi.

Fraksiyalar, Qonunchilik palatasining qo’mitalari Milliy ma’ruzani dastlabki tarzda ko’rib chiqadi hamda fikrlar va takliflarni ishlab chiqadi, fikrlar va takliflar Qonunchilik palatasining majlisida majburiy ravishda hamda har tomonlama muhokama qilinadi.

Milliy ma’ruzani ko’rib chiqish yakunlari bo’yicha Qonunchilik palatasi qaror qabul qiladi, unda O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar bo’lishi mumkin.

Milliy ma’ruzani ko’rib chiqish yakunlari bo’yicha qabul qilingan Qonunchilik palatasining qarori O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuboriladi”.

**4-modda.** O’zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to’g’risida”gi 523-II-sonli [Qonuni](#) (O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, № 9-10, 137-modda; O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarinining Axborotnomasi, 2007-yil, № 4, 163-modda; 2009-yil, № 4, 136-modda; 2011-yil, № 4, 101-modda; 2014-yil, № 4, 86-modda; 2015-yil, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 9, 276-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 224-modda, № 7, 431-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda, № 2, 47-modda, № 3, 162-modda, № 5, 261, 265-moddalar, № 8, 468-modda, № 12, 884-modda; 2020-yil, № 8, 488-modda; 2021-yil, № 1, 13-modda, 4-songa ilova) quyidagi mazmundagi 25<sup>2</sup>-modda bilan to’ldirilsin:

## **“25<sup>2</sup>-modda. O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risidagi milliy ma’ruzani ko’rib chiqish**

O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi har yili O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida milliy ma’ruza (bundan buyon matnda Milliy ma’ruza deb yuritiladi) tayyorlaydi, Milliy ma’ruza O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori tomonidan Senatga taqdim etiladi.

Senat qo’mitalari Milliy ma’ruzani dastlabki tarzda ko’rib chiqadi hamda fikrlar va takliflarni ishlab chiqadi, fikrlar va takliflar Senatning majlisida majburiy ravishda hamda har tomonlama muhokama qilinadi.

Milliy ma’ruzani ko’rib chiqish yakunlari bo’yicha Senat qaror qabul qiladi, unda O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar bo’lishi mumkin.

Milliy ma’ruzani ko’rib chiqish yakunlari bo’yicha qabul qilingan Senatning qarori O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuboriladi”.

**5-modda.** O’zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyulda qabul qilingan “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr) O’zbekiston Respublikasining qo’shilishi to’g’risida”gi O’RQ-158-sonli Qonunining (O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarinining Axborotnomasi, 2008-yil, № 7, 349-modda) [1-bandidagi](#) “O’zbekiston Respublikasining Bosh prokururasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati” degan so’zlar “O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokururasi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati” degan so’zlar bilan almashtirilsin.

**6-modda.** O’zbekiston Respublikasining 2011-yil 29-sentabrda qabul qilingan “Jinoyat ishini yuritish chog’ida qamoqda saqlash to’g’risida”gi O’RQ-298-sonli [Qonuni](#) (O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarinining Axborotnomasi, 2011-yil, № 9, 251-modda; 2012-yil, № 9/1, 238-modda; 2019-yil, № 5, 267-modda, № 9, 592-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi mazmundagi 23<sup>1</sup>-modda bilan to’ldirilsin:

## **“23<sup>1</sup>-modda. O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlarining qamoqda saqlash joylariga borishi**

O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlari korrupsiyaning sabablari va shart-sharoitlarini o’rganish hamda tahlil qilish uchun o’z vakolatlari doirasida

qamoqda saqlash joylariga moneliksiz kirish va zarur hujjatlar bilan tanishish huquqiga ega.

Qamoqda saqlash joyining ma'muriyati O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlariga ularning o'z vazifalarini bajarishi va tegishli hujjatlar bilan tanishishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashi shart".

**7-modda.** O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda qabul qilingan "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-sonli [Qonuniga](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, № 5, 129-modda; 2015-yil, № 8, 310-modda; 2016-yil, № 12, 383-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda, № 2, 47-modda, № 5, 267-modda, № 9, 591-modda, № 10, 674-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi qo'shimchalar va o'zgartish kiritilsin:

1) 9-moddaning [birinchi qismi](#):

quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi";

[yettinchi — o'n uchinchi xatboshilar](#) tegishinchalari sakkizinchi — o'n to'rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

2) quyidagi mazmundagi 12<sup>3</sup>-modda bilan to'ldirilsin:

**"12<sup>3</sup>-modda. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining huquqbazarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi:

huquqbazarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

huquqbazarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

mamlakatdagi korrupsiya holati tizimli tahlil qilinishini ta'minlaydi, shuningdek korrupsiyaga oid xavf-xatarlar eng yuqori bo'lgan sohalarni, korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini aniqlaydi;

davlat xaridlari va budget mablag'laridan, xalqaro tashkilotlar va chet davlatlarning qarzlaridan foydalanish, davlat aktivlarini realizatsiya qilish sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

fugarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid axborotni tarqatish, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil etish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantiradi;

vazirliklar va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin".

**8-modda.** O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 11-aprelda qabul qilingan "Parlament nazorati to'g'risida"gi O'RQ-403-sonli [Qonuniga](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016-yil, № 4, 123-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 224-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda, № 3, 157-modda, № 5, 261, 265-moddalar, № 9, 588-modda, № 12, 884-modda; 2020-yil, № 8, 488-modda; 2021-yil, № 1, 13-modda, 4-songa ilova) quyidagi qo'shimchalar va o'zgartish kiritilsin:

1) 5-moddaning [birinchi qismi](#):

quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'rzasini ko'rib chiqish";